

**SIRDARYO VILOYATI MUSIQALI DRAMA TEATRI REPERTUARIDA  
KOMEDIYA JANRINING O‘RNI**  
(“Afandining besh xotini” spektakli misolida)

**Abdumuxtorova Nazokat Sayibjon qizi** – *mustaqil izlanuvchi*  
*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti*

**Tayanch so‘zlar:** Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri, komediya janri, “Afandining besh xotini”, xalqona hazil, ayol obrazlari, sahnaviy dinamizm, milliy teatr an‘analari.

**Ключевые слова:** Сырдарьинский областной музыкально-драматический театр, жанр комедии, «Пять жен Афанди», народный юмор, женские образы, сценическая динамика, национальные театральные традиции.

**Key words:** Sirdaryo Regional Musical Drama Theater, comedy genre, “Afandi’s Five Wives”, folk humor, female characters, stage dynamism, national theatrical traditions.

Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri repertuarida komediya janri teatr ijodiy faoliyatining ajralmas qismi sifatida shakllanib, aktyorlik mahorati va rejissorlik izlanishlarining rivojida muhim o‘rin egallab kelmoqda. Mazkur teatr sahnasida jahon mumtoz adabiyoti namunalari, rus va boshqa xalqlar dramaturgiyasining sara asarlari bilan bir qatorda o‘zbek komediyanaovislarining pyesalari ham muntazam ravishda namoyish etib kelinmoqda.

1990-yillar o‘zbek teatr san‘ati uchun yangi bosqich bo‘lib, ijodiy erkinlik va milliy o‘zlikni anglash jarayoni teatr faoliyatida ham o‘z aksini topdi. Shu bilan birga, xo‘jalik hisobi asosidagi mustaqil moliyaviy tizimga o‘tish teatr jamoalari oldida yangi mas‘uliyat va muammolarni yuzaga chiqardi. Natijada, teatrlar o‘z mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritishga, kassabop spektakllarni sahnalashtirish orqali xarajatlarni qoplashga majbur bo‘ldilar. Bu hol esa ayrim hollarda badiiy saviyaning pasayishiga, tijoriy manfaatlarning ustun kelishiga sabab bo‘ldi. Komediyaning teatr hayotidagi taraqqiyot bosqichlari shuni anglatadiki, dastlab u tomoshabinni faqat kuldirish vositasi sifatida qabul qilingan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan u chuqur mazmun va ijtimoiy ma‘noga ega badiiy shaklga aylandi. Teatrshunos olimi Sarvinoz Qodirova “Teatrdagi hayot aksi” nomli tadqiqotida bu borada shunday yozadi: “Bir zamonlar kulgi — kulgi uchun bo‘lgan” (1,84). Uning fikricha, komediya janrining rivojlanish jarayonida aktyorlik talqini, obrazni ochish usullari hamda kulgi vositasida muayyan g‘oyaviy maqsadni ifodalash madaniyati sezilarli darajada o‘zgaragan.

O‘zbek xalqining estetik didi va madaniy an‘analarida komediya janriga alohida mehr mavjud. Ijtimoiy hayotda murakkab davrlar, ruhiy tanglik yoki ziddiyatli holatlar yuzaga kelgan

pallalarda dramaturglar va teatr jamoalari ko‘pincha komediya janriga murojaat etganlar. Bunday holat bejiz emas, chunki komediyani sahnalashtirish moddiy jihatdan ham qulay bo‘lib, tarixiy yoki ijtimoiy-siyosiy asarlarga nisbatan ancha kam xarajat talab etadi. Shu bilan birga, bugungi kunda yirik mavzulardagi spektakllar uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan davlat buyurtmasi tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu orqali davlat muhim badiiy loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlaydi. Mustaqillik yillarida teatr sahnalarida ko‘plab tarixiy shaxslar hayotiga bag‘ishlangan dramatik asarlar yaratildi. Biroq ularning aksariyati tomoshabinlar e‘tiborini uzoq muddat ushlab tura olmadi. Masalan, Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida 2019-yilda sahnalashtirilgan “Bibixonim” spektakli qisqa muddat davomida namoyish etildi. Bu holat, asosan, tarixiy janrdagi asarlarning tomoshabindan ma‘lum bilim va tayyorgarlikni talab etishi bilan izohlanadi. Chunki bunday spektakllarni to‘liq anglash uchun yoritilayotgan tarixiy davr, shaxslar va voqealar haqida tasavvurga ega bo‘lish zarur. Komediya esa o‘z tabiatiga ko‘ra keng auditoriyani qamrab oladi. U tomoshabinga ruhiy yengillik, ijobiy kayfiyat bag‘ishlaydi, kundalik tashvishlardan ozod qiladi hamda ko‘pincha chuqur falsafiy fikrga undaydi. Shu boisdan ham poytaxt va viloyat teatrlari repertuarida komediya janrining ulushi tobora ortib bormoqda. Bu hol, o‘z navbatida, komediya yozuvchi dramaturglar safining kengayishiga sabab bo‘ldi. Axir, san‘atda ham umumiy qonuniyat amal qiladi: jamiyatda ma‘lum talab shakllansa, unga muvofiq taklif ham vujudga keladi. Hurlikning dastlabki yillari nafaqat siyosiy va ijtimoiy hayotda, balki madaniy-ma‘naviy sohada ham tub burilish davri bo‘ldi. Ayniqsa, teatr san‘atida milliy o‘zlikni tiklash, xalqona

obraz va qadriyatlarni sahnaga olib chiqish jarayoni yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri ham o'z ijodiy izlanishlarini faollashtirdi. Teatr repertuarida tarixiy mavzudagi dramatik asarlar bilan bir qatorda xalqona kulgi va hayotiy lavhalarga asoslangan komediyalar keng o'rin egallay boshladi.

Ana shunday sahna asarlaridan biri dramaturg Ibrohim Sodiqov qalamiga mansub "Afandining besh xotini" komediyasi bo'lib, 1991-yilda sahnalashtirilgan. Mazkur pyesa o'z davri uchun dolzarb bo'lgan - xalqona kulgi, oddiy insonlarning hayoti va ijtimoiy munosabatlarini yengil, ammo teran ifoda etishga qaratilgan asar sifatida e'tirof etiladi. E'tiborlisi shundaki, pyesa bir vaqtning o'zida ikki teatr - Hamza nomidagi (hozirgi O'zbekiston davlat akademik drama teatri) va Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri sahnasi uchun tayyorlangan. Hamza teatri bu jarayonga taniqli rejissor Marat Azimov rahbarlik qilgan bo'lsa, Sirdaryo teatri asar sahnalashtirishini dramaturg, pedagog va rejissor Jo'ra Mahmudov amalga oshirgan.

Komediyaning syujeti xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan Afandi obraziga asoslanadi. Asarda voqealar Afandining podsho bilan bahsga kirishishi bilan boshlanadi. U xotinlar bilan bermalol murosa qilishi, ularning hiylalariga aldanmasligi haqida maqtanib, podsho bilan garov o'ynaydi. Shu orada podsho sinov tariqasida to'rt xotinni Afandiga tuhfa etilgan hovliga yuboradi. Ammo Afandining o'ziga xos, mehribon va sadoqatli ayoli - Fotima ham bor edi. To'rt yangi xotin Afandiga "Ayol makri qirq tuyaga yuk bo'ladi" degan naqlni eslatib qo'yish uchun ishga kirishishadi. Shu tariqa asar davomida kulgili sahnalar yuzaga keladi. Oxir-oqibat Afandi o'zining sevimli ayoli va eshagini olib, qolgan xotinlarni tashlab ketadi.

Mazkur komediyada ijtimoiy ziddiyatlar, sinfiy kurash yoki fojiali holatlar mavjud emas. Asarning asosiy mohiyati Afandining o'ziga xos maqtanchoqligi va ayollar makri o'rtasidagi konfliktidan iborat. Teatrshunos Muhabbat To'laxo'jayeva zamonaviy o'zbek teatrlarining rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilar ekan, shunday yozadi: "Hozirgi sahna rivojini ikki yo'nalish belgilaydi: biri - masxarabozlik, tomoshaviylikka asoslangan teatr-o'yin, ikkinchisi - inson va uning olamdagi o'rnini haqida falsafiy mushohadalar yurituvchi badihago'ylik teatri" (1,85).

Uning bu fikridan kelib chiqilsa, "Afandining besh xotini" komediyasi birinchi yo'nalishga - ya'ni tomoshaviylik va xalqona o'yin unsurlariga tayanadigan teatr shakliga mansubdir. Bu esa o'z navbatida xalq teatrlari, sayyor truppalari va og'zaki ijod an'analari davomchisi sifatida teatr hayotida komediyaning tutgan o'rnini ko'rsatadi.

Bunday talqin qadimiy teatr nazariyasi bilan ham hamohang. Yunon olimi Aristotel o'zining mashhur "Poetika" asarida tragediya va komediya janrlarini tahlil qilib, har bir sahna asarining muhim elementi sifatida tomoshaviylik (ya'ni ko'ruvchiga estetik zavq bag'ishlash qobiliyati)ni alohida qayd etadi.

"Afandining besh xotini" aynan shu tamoyil asosida qurilgan bo'lib, unda dramatik ziddiyatdan ko'ra o'yin, harakat, ifoda orqali kulgi uyg'otish ustuvor o'rin egallagan.

Spektaklning muvaffaqiyatida, albatta, bosh rol ijrochisining mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Aktyor Abduhamid G'ofurov o'zining yurish-turishi, mimikasi, so'zlash ohangi va harakati orqali Afandi obrazini jonli, xalqona va shu bilan birga badiiy darajada ifoda etgan. Uning ijrosi orqali Afandi nafaqat kulgi manbai, balki insoniy kamchiliklar ustidan kulish, maqtanchoqlik va soddalikka tanqidiy nigoh bilan qarash ramziga aylangan.

Oradan 34 yil o'tib, Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri jamoasi tomonidan mazkur asarga qayta murojaat qilindi. Asar bu safar musiqali komediya shaklida sahnalashtirilib, rejissor Qutlimurod Yakubov tomonidan xalqona ohang, milliy hazil va sahnaviy dinamizm uyg'unligida talqin etildi. Rejissor asarda milliy teatr an'analari zamonaviy sahna texnikasi bilan birlashtirib, estetik yaxlitlikni ta'minlashga erishdi. Spektakl dramaturgiyasining markazida, albatta, Afandi obrazi turadi. Bu rolni ijro etgan Sherzod Kattaboboyev xalq donishmandi timsolini zamonaviy talqinda yaratishga muvaffaq bo'ldi. Uning ijrosida Afandi nafaqat kulgi manbai, balki xalq tafakkurining timsoli, hayotiy haqiqatlarni soddagina so'z orqali ifodalovchi obraz sifatida gavdalanadi. Asardagi ayol obrazlari - To'tixon (D.Mirsalimova), Tamannoxon (L.Mamanazarova), Zubaydaxon (N.Xolmatova), Jannatoy (R.Hayitova) va Fotima (R.Yunusova) orqali turfa xarakterlar namoyon bo'ladi. Ayniqsa, To'tixon obrazi aktrisa Dilorom Mirsalimovanning mahoratli ijrosi sabab ajralib turadi. Ulug'bek Axmedov (Qodirvoy), Qandiyor Rustamov (G'ulom), Begzod Mirsaitov (Hammol) singari aktyorlar esa

spektakldagi ikkinchi plandagi obrazlar orqali ijtimoiy kulgi fonini mustahkamlaydi.

Spektaklning sahna bezaklari rassom Ilhom Rustamov tomonidan yaratilgan bo‘lib, voqeadan kelib chiqqan holda, bir supa va besh xonani anglatuvchi besh parda, ortiqcha narsaning o‘zi yo‘q (Menimcha, ushbu spektakl ko‘chma namoyishlar uchun ham qulay). Yorqin ranglar, milliy liboslar orqali Afandi yashagan davr muhiti qayta tiklangan. Spektaklning musiqiy yechimi ham asarning umumiy badiiy konsepsiyasida muhim o‘rin tutadi. Musiqa rahbari Rahimjon Hasanov va dirijyor Dilmurod Tadjibiyev tomonidan yaratilgan musiqiy asos xalq kuylariga tayangan holda tuzilgan. Qo‘shiqlar matni ustida N.Abdumuxtorova va R.Hasanov ishlagan bo‘lib, ular orasida xalq qo‘shiqlari, Ravshan Namozov ijodidan namunalar va o‘zbek folklorining lirizmga boy ohanglari uyg‘unlashtirilgan.

Har bir qo‘shiq sahna harakati va obrazlar ruhiyatiga mos tarzda ishlangan. Ayniqsa, besh ayol obraziga munosib topilgan qo‘shiqlar qahramonlar xarakterini ochishda asosiy vositalardan biriga aylangan.

“Afandining besh xotini” spektakli mazmunan kulgi orqali ijtimoiy-axloqiy muammolarni yoritadi. Unda oila qadri, insoniy munosabatlar, erkak va ayol o‘rtasidagi muvozanat, sabr-toqat, halollik va mehr-muhabbat kabi umuminsoniy g‘oyalar xalqona yumor vositasida ifoda etilgan. Spektakl tomoshabinga nafaqat kulgu, balki hayotiy mushohada, ijtimoiy tahlil va ma‘naviy xulosa uchun zamin yaratadi. Shu bois u milliy teatr maktabining rivojlanishida muhim bosqich sifatida ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Qodirova. “Teatrda hayot aksi”. San‘at jurnali nashriyoti. T- 2011 y. 84-bet.
2. S. Qodirova. “Teatrda hayot aksi”. San‘at jurnali nashriyoti. T- 2011 y. 85-bet.
3. I.Sodiqov. “Afandining besh xotini”, elektron resurs.
4. “Afandining besh xotini” spektakl dasturi – 1991 y, 2025 y.
5. Sirdaryo viloyati musiqali drama teatri repertuari 1975-2025-yillar.

**REZYUME.** Ushbu maqolada Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrining ijodiy taraqqiyoti jarayonida komediya janrining o‘ziga xos shakllanishi tahlil qilinadi. Xususan, rejissyor Jo‘ra Mahmudov va Qutlimurod Yakubovlar tomonidan turlicha talqinda sahnalashtirilgan “Afandining besh xotini” spektakli misolida xalqona hazil, sahnaviy dinamizm, ayol obrazlarining badiiy talqini hamda milliy mentalitet ifodasi ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda xalq ijodiy merosi va zamonaviy teatr estetikasi uyg‘unligi, aktyorlik ansamblining roli hamda musiqiy dramaturgiya unsurlari o‘rganilgan. Maqola Sirdaryo viloyati teatr san‘atining rivojlanish bosqichlarini yoritishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется своеобразное формирование жанра комедии в процессе творческого развития Сырдарьинского областного музыкально-драматического театра. В частности, на примере спектакля «Пять жен Афанди», поставленного режиссёрами Джура Махмудовым и Кутлимуродом Якубовым в разных интерпретациях, рассматриваются народный юмор, сценическая динамика, художественное воплощение женских образов и выражение национального менталитета. В исследовании изучаются гармония народного творческого наследия и современной театральной эстетики, роль актёрского ансамбля и элементы музыкальной драматургии. Статья имеет важное теоретическое и практическое значение для освещения этапов развития театрального искусства Сырдарьинской области.

**SUMMARY.** This article analyzes the distinctive development of the comedy genre in the creative progress of the Sirdaryo Regional Musical Drama Theater. In particular, it examines, through the example of the play “Afandi’s Five Wives” staged by directors Jo‘ra Mahmudov and Qutlimurod Yakubov in different interpretations, the elements of folk humor, stage dynamism, artistic portrayal of female characters, and expression of the national mentality. The study explores the harmony between folk creative heritage and modern theater aesthetics, the role of the acting ensemble, and the components of musical dramaturgy. The article holds significant theoretical and practical value in highlighting the stages of development of theatrical art in the Sirdaryo region.